

OILADA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MEHNAT VA KASB-HUNAR HAQIDAGI QARASHLARI

Nosir Baratov, o'qituvchisi

JDPU Pedagogika va psixologiya musiqa va masofaviy ta'lim kafedrasи

Annotatsiya: Maqolada sharq mutafakkirlar qarashlari asosida yosh avlodnin ilm-hunarli va eng yaxshi insoniy fazilatlarni egallash masalalari va sharq mutafakkirlarining mehnat va kasb-hunar haqidagi qarashlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Kasb hunar, tadbirkorlik-huquqiy, ta'limiy-axloqiy, kasblar, dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilikka, menhatsevar, vijdonli, insofli, to'g'ri, saxovatli,muruvvatli.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan buyon davlatimiz tomonidankichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda nafaqat hal qiluvchi mavqe egallashi, balki uning aholi farovonligi va daromadlarini orttirishda, ishsizlik muammosini yechishda ham muhim omilga aylantirishga erishish yo'lida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Haqiqatan, amaldagi qonun hujjatlarimizga muvofiq holda xususiy sektorning rivojlanishiga keng yo'l ochib berilmoqda, buning natijasida esa tadbirkorlik faoliyati keng qanot yoymoqda. Bu esa o'z navbatida fuqarolarning tadbirkorlik-huquqiy munosabatlarining sub'ektlari deb tan olinishiga olib keldi.

Ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunar o'rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug'lash masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz. Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namunalari topishmoq, xalq qo'shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarini o'zlashtirish muhim hayotiy zaruriyat ekanligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari «Avesto», Kaykovusning «Qobusnom», Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Geodeziya», «Minerologiya», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bular dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridagi xalq eposlari, ertak, maqol va topishmoqlardan boshlangan.

Mana shunday ertaklardan biri «Aql va boylik» ertagidir. Bunda chol to'rt o'g'liga qarata «Kim aqli va davlatmand bo'lsa, o'sha oila boshlig'i bo'lib

qoladi», degan so'zlariga o'g'llaridan biri zumrad ko'zli oltin uzugi, ikkinchisi zarbof chophonini, uchinchisi esa qimmatbaho kamarini ko'rsatadi.

Kenja o'g'il esa otasining savoliga «Menda zumrad ko'zli uzuk ham, zarbof chophon ham, qimmatbaho kamar ham yo'q, lekin mehnatkash qo'lim, botir yuragim, aqli boshim bor», - deydi va otasi uni oila boshlig'i qilib, uy-ro'zg'orini meros qoldiradi. Ko'rinish turibdiki, xalq bu ertak vositasida yoshlarga insonni hayotda baxtli qila oladigan narsa mehnat degan g'oyani ilgari surgan. Faqat ertaklarda emas, xalq maqollarida ham mehnatsevarlik, mehnatda hamkorlik, mehnatning insonni baxtli-saodatli qilishi ifodalangan.

Masalan: Daryo suvini bahor toshirar,

Inson qadrini mehnat oshirar.

Oltin o'tda bilinar,

Odam mehnatda.

kabi maqollar shular jumlasidandir.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida esa shahar va qishloq xalqini ijtimoiy tabaqalarga ajratib, dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar, olimlar, tabiblar va boshqalar haqida so'zlab, ularning jamiyat hayotidagi o'rniga alohida to'xtalib o'tadi. Turli kasblar, ayniqsa, dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilikka oid fikrlarini bayon etadi. U dehqon, hunarmand va chorvadorlarni jamiyatning moddiy boyliklarini yaratuvchi sifatida ta'riflaydi.

Alisher Navoiyning haqiqiy inson uchun eng yaxshi fazilatlardan biri mehnatsevarlik deb ko'rsatadi. U «Hayrat-ul abror»ning beshinchi maqolatida kishilarning saxovatiga ko'z tikishdan ko'ra o'z qo'li bilan hayot kechirish ulug'roq va olижаноброқ ekanligini «Hotam Toyi» hikoyatida keltiradi.

Hotam Toyi bir kuni qo'y-qo'zilar so'ydirib, xalqqa katta ziyoфat beradi. So'ng biroz dam olish uchun dalaga chiqadi. Unga yelkasida o'tin ko'tarib kelayotgan bir chol uchraydi. Hotam Toyi unga «Dashtda yurib bexabar qolgandirsan, tashla bu og'ir yukni, Hotam uyiga borib ziyoфatida izzat ko'rgil», - deydi. Shunda chol kulib: «Ey, oyog'iga hirs band solgan, g'ayrat vodiysiga qadam urmagan kishi, sen ham bu tikan mehnatini chekkin va Hotamning minnatidan qutulgin», - deb javob qiladi. Hotam Toyi cholning bu so'zlariga tan beradi va halol mehnat bilan kun kechirishi uning himmatidan baland ekanligini anglaydi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy yosh avlodning ilm-hunarli va eng yaxshi insoniy fazilatlarni egallagan kishilar bo'lismeni orzu qiladi. Uning "Munosib el" deb ataluvchi kishilar xalqqa xizmat qiluvchi xalq manfaatini ko'zlovchi menhatsevar, vijdonli, insofli, to'g'ri, saxovatli va muruvvatli kishilar ekanligini ko'ramiz. Alisher Navoiy mehnatning insonni go'zallashtirishi, faqat mehnat tufayligina insonning kamol topishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu maqsadda u

qator mehnatsevar badiiy obrazlarni yaratadi. Masalan, «Farhod va Shirin» dostonining asosiy qahramoni Farhod ana shunday qahramonlar jumlasidandir.

Farhod Armaniston o’lkasiga qadam qo’yganda, o’z yurtida Qorandan o’rgangan tosh yo’nish hunarini ishlatib, og’ir mehnatdan ezilgan xalqqa yordam beradi. O’z hunari, mehnati tufayli bir tomondan xalqning og’ir mehnatini yengillashtirgan bo’lsa, ikkinchi tomondan sevgilisi SHirinning hurmatiga sazovor bo’ladi. Farhodning mehnatsevar va ijodkorligidan ilhomlangan Alisher Navoiy o’z dostonining ikkinchi nomini «Mehmonnoma» deb ataydi. Mehnatga muhabbat, ijodkorlik dostonning markaziy masalalaridan biri bo’lib hisoblanadi.

Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida mehnat insonni bezaydigan muhim sifat ekanligi, yalqovlik va dangasalik esa insonga mos xususiyat emasligini alohida ta’kidlab o’tadi. U mehnatni yaxshi yoki yomon bo’lmasligi va bolalarni har bir ishni bajarishga o’rgatish kerakligi bu esa bolalarni yuksak kamolotga olib chiqishga va saodatga erishishga yaqindan ko’mak berishini ta’kidlaydi. Kasb-hunarni yaxshi yoki yomon bo’lmasligi va bolalarni yoshligidan boshlab kasb-hunarga o’rganishga chorlaydi: “ushbu ko’mirchilik, bu temirchilk manga munosib ish emas. deb dangasalik qilib, ishsiz yursa, zo’r ayb, g’ayratsizlikdir”¹. Abdulla Avloniy bolalarni mehnatga o’rgatish va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda hayotiy misollar keltirish bilan hayvonlar va hashoratlar misolidagi hikmatlardan foydalangan. Adib bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda oilada, ota-onalar yordamidan so’ng maktablardagi ta’lim-tarbiya jarayonlarida amalga oshirishni ma’qullaydi.

Buyuk mutafakkirlamizning mehnat tarbiyasi xususidagi fikrlari bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etib, bolalarni mehnatsevar qilib tarbiyalashda vosita bo’lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Xamsa. -Toshkent, Adabiyot va san’at nashriyoti, - 70-71-betlar.
2. Alisher Navoiy. Asarlar. O’n besh tomlik. Uchinchi nashr. - Toshkent, G’.G’ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1977, - 29- 30-betlar.
3. Sh.U.Kamolova. “Bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishda umuminsoniy va ilmiy qadriyatlarning ahamiyati” Ta’lim fan va innovatsiyalar. 1-son, 2024 y. 275-278 b
4. Sh.U. Kamolova “Talabalar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishda axborot texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari” ////..Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar 2023y.104-114 b.
5. Shirin Kamolova, Yoshlarni ma’naviy boy, jismonan sog‘lom qilib tarbiyalashda sharq mutafakkirlarining qarashlari. Sbornik tezisov nauchno-

¹ Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq”. Yoshlar nashriyot uyi. Toshkent. 2019-yil 75-bet.

5. Abdulakimovna, S. S. (2021). TEACHERS SELF-DEVELOPMENT AS A CRITERION FOR INCREASING PROFESSIONAL COMPETENCE. *World Bulletin of Social Sciences*, 3(10), 58-60.
6. Abdulakimovna S. S. Socially Psychological Education of Self-Development Skills in Future Teachers Functions //International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 231-235
7. Shakarboyeva, S. (2022). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ЎЗ УСТИДА ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(2).
8. Shakarboyeva, S. (2021). БЎЛҒУСИ ПЕДАГОГЛАРДА ЎЗ УСТИДА ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1).
9. Shakarboyeva, & O'ktamova , O. (2024). TARBIYASI OG‘IR O‘SMIRLARNI IJTIMOIYLASHTIRISHDA OILA, MAHALLA, TA’LIM MUASSASASI HAMKORLIKIN RIVOJLANTIRISH USULLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 139-147. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9555>
10. Shakarboyeva, & Qayumov, A. (2024). AUTIZMLI BOLALARINI RIVOJLANTIRISHDA ART TERAPIYA USULLARIDAN FOYDALANISH IMKONYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 148-154. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9556>
11. Мунарова, Р. У. (2016). Камолова Ширин Усаровна, Шакарбоева Шахноза Абдулакимовна, Каршибоева Дилфуза Бурлиевна, & Алимкулов Сирожиддин Олимжон ўғли (2016). *Великие мыслители Средней Азии о воспитании гармоничного и всесторонне развитого поколения. Проблемы педагогики*, (2 (13)), 17-19.
12. Abdulakimovna, S. S. (2021). Socially Psychological Education of Self-Development Skills in Future Teachers Functions. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 1(5), 231-235.
13. Abdulakimovna, S. S. (2022). Social-Psychological Characteristics Of Professional SelfDevelopment Of Future Teachers. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 14, 138-140.
14. Shakarboyeva, S. (2024). TARBIYASI OG‘IR O‘SMIRLARNI IJTIMOIYLASHTIRISHDA OILA, MAHALLA, TA’LIM MUASSASASI HAMKORLIKIN RIVOJLANTIRISH USULLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 139-147.

- 15.Шакарбоева, Ш. (2024). Бошланғич синфларда чет тили ўзлаштириш ва ўрганишнинг ёшга оид хусусиятлари. *Общество и инновации*, 5(10/S), 286-290.
- 16.Shakarboyeva, & Qayumov, A. (2024). AUTIZMLI BOLALARНИ RIVOJLANTIRISHDA ART TERAPIYA USULLARIDAN FOYDALANISH IMKONYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 148-154. извлечено от <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9556>
- 17.Shahnoza Shakarboyeva, БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ЎЗ УСТИДА ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: Том 2 № 2 (2022): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari
- 18.Shahnoza Shakarboyeva, РАБОТА НАД СОБОЙ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ КАК КРИТЕРИЙ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 2 (2021): Журнал педагогики и психологии в современном образовании (октябрь)
- 19.Shahnoza Shakarboyeva, Oynisa O'ktamova, TARBIYASI OG'IR O'SMIRLARNI IJTIMOIYLASHTIRISHDA OILA, MAHALLA, TA'LIM MUASSASASI HAMKORLIKligini RIVOJLANTIRISH USULLARI, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: Том 4 № 1 (2024): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari
- 20.Shahnoza Shakarboyeva, O'SMIRLIK DAVRIDAGI SUITSIDNING KELIB CHIQISH SABABLARI, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2023): «СОВРЕМЕННАЯ СОЦИАЛЬНАЯ ПСИХОЛОГИЯ: ТРАДИЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ» I - МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
- 21.Shahnoza Shakarboyeva, Гавҳар Худойқулова, БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ЧЕТ ТИЛИ ЎЗЛАШТИРИШ ВА ЎРГАНИШНИНГ ЁШГА ОИД ХУСУСИЯТЛАРИ, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2023): «СОВРЕМЕННАЯ СОЦИАЛЬНАЯ ПСИХОЛОГИЯ: ТРАДИЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ» I - МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
- 22.Shahnoza Shakarboyeva, Назира Жасурова, ЎСМИРЛАРДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎРГАТИШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2023): «СОВРЕМЕННАЯ СОЦИАЛЬНАЯ ПСИХОЛОГИЯ: ТРАДИЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ» I - МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
- 23.Shakarboyeva Shahnoza Abdulakimovna. (2024). Nogiron o'smirlarni ijtimoiylashtirishda oila, mahalla, ta'lismuassasasi o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish usullari. *Diplomatiya, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali*, 1 (1), 6–8. <https://semantjournals.com/index.php/JDLIA/article/view/26>

24. Мунарова Раибо Усаровна, Камолова Ширин Усаровна, Шакарбоева Шахноза Абдулакимовна, Каршибоева Дилфуз Бурлиевна, & Алимкулов Сирожиддин Олимжон Угли (2016). Великие мыслители Средней Азии о воспитании гармоничного и всесторонне развитого поколения. Проблемы педагогики, (2 (13)), 17-19.